MASHINA TARJIMASIDA SINONIMLAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

Sotvoldiyeva Nilufar Sirojiddin qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti 2-bosqich magistranti.
E-mail: sotvoldiyevanilufar0@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada turk va o'zbek tillaridagi sinonimlarning mashina tarjimasi jarayonida kelib chiqadigan muammolari o'rganilib chiqildi. Ma'lumki bugungi kunda turk adabiyoti durdonalariga qiziqish katta. Shu sababli ko'plab turk asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda. Bunda, albatta, mohir tarjimonlar bizga ko'mak bo'lmoqda. Biroq mashina orqali ham qiziquvchilar tomonidan tarjimalar amalga oshirilmoqda. Bu, albatta, vaqtni hamda mablag'ni tejashi mumkin, biroq bunday yo'l bilan qilingan tarjimlar o'zini qanchalik oqlamoqda? Bilamizki, bizning tilimiz boy va imkoniyatlari keng til hisoblanadi. Bu imkoniyatlarni hosil qiluvchi tilimizda omonim, antonim, ko'p ma'noli so'zlar hamda sinonim kabi leksik birliklar mavjud. Xo'sh, mashina qilayotgan tarjimalarda tilimizning asosi bo'lgan bunday birliklar nechog'lik o'zining asl ma'nosini saqlab qolmoqda? Konteks bilan bog'liq semantik muammolar yuzaga kelmayaptimi? Biz ushbu maqolada mana shu muammolarni ko'rib chiqdik.

Kalit so'zlar: Mashina tarjimasi, CAT, HAMT, FAMT, turk va o'zbek tilidagi sinonimlar, sinonimlarning semantik va lingvistik xususiyati.

Abstract: this article examines the problems that arise in the process of machine translation of synonyms in Turkish and Uzbek languages. It is known that today there is great interest in the masterpieces of Turkish literature. For this reason, many Turkish works are translated into Uzbek. Of course, experienced translators help us with this. However, those who wish can make transfers using a machine. Of course, this can save time and money, but how worthwhile are translations done this way? We know that our language is a rich and multifaceted language. In our language there are lexical units such as homonyms, antonyms, polysemantic words and synonyms that create these possibilities. So how many of these units, which form the basis of our language, retain their original meaning in machine translations? Are there semantic issues related to context? We examined these problems in this article.

Keywords: Machine translation, CAT, HAMT, FAMT, Turkish and Uzbek synonyms, semantic and linguistic characteristics of synonyms.

Аннотация: В данной статье изучены проблемы, возникающие в процессе машинного перевода синонимов турецкого и узбекского языков. Известно, что сегодня существует большой интерес к шедеврам турецкой литературы. По этой причине многие турецкие произведения переводятся на узбекский язык. Конечно, в этом нам помогают опытные переводчики. Однако переводы желающие осуществляют с помощью машины. Конечно, это может сэкономить время и деньги, но насколько оправдывают себя переводы, выполненные таким способом? Мы знаем, что наш язык – богатый и многогранный язык. В нашем языке существуют такие лексические единицы, как омонимы, антонимы, многозначные слова и синонимы, которые создают эти возможности. Итак, сколько таких единиц, составляющих основу нашего языка, сохраняют свое первоначальное значение в

машинных переводах? Есть ли семантические проблемы, связанные с контекстом? Эти проблемы мы рассмотрели в этой статье.

Ключевые слова: Машинный перевод, CAT, HAMT, FAMT, турецкие и узбекские синонимы, семантическая и лингвистическая характеристика синонимов.

Kirish

Jamiyatimizda hozirgi davrda avtomatlashgan informatsion texnologiyalar va kompyuter muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa yangi yo'nalishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Mashina tarjimasi kompyuter lingvistikasining muhim yo'nalishi hisoblanib, fanga oid barcha tadqiqotlar dasturiy ta`minot va lug'atshunoslik bilan uzviy bog'liqdir. Tabiiy tilning milliy leksik boyligi, imkoniyatlari lug'atlarda namoyon bo'ladi. Shu bois lug'atlar mashina o'qiy oladigan formatda bo'lishi, qidiruv tizimiga egaligi, indekslanganligi, kategoriyalashtirilganligi, klasterlashtirilganligi va foydalanuvchiga undan foydalanish imkoniyatining qulayligi va kengligi bilan xarakterlanadi. Dasturiy ta'minot esa ana shunday mukammal lug'atlar bilan lingvistik ta`minot ba'zasini ta'minlab beradi. Mashina tarjimasi haqida so'z borar ekan, tarjimon turlari haqida alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

♦ mashina yordamidagi inson tarjimasi (machineassisted human translation – MAHT) – inson tomonidan matnni tarjima qilishda kompyuter elektron lug'atlaridan foydalanish va unga kiritilgan ko'rsatmalardan foydalanish;

♦ kompyuter yordamidagi tarjima (computer assistedtranslation – CAT) – matnni kompyuter vositasida tarjima qilish va unda anglashilgan asosiy tushunchalarni ajratishga xizmat qiladi;

♦ inson yordamidagi mashina tarjimasi (human-assisted machine translation – HAMT) – kompyuter dasturiy ta'minoti orqali amalga oshiriladigan tarjimaga inson resursi tomonidan tahrirlash vazifalarini yuklash;

♦ to'liq avtomatik mashina tarjimasi (fully automatic machine translation – FAMT) – tarjimon dasturi orqali matnni ham tarjima, ham tahrirlovchi vazifalarini amalga oshirish.

Qisqacha shuni ta'kidlash o'rinliki, kompyuter lingvistikasining yo'nalishi sifatida o'rganilayotgan mashina tarjimasi har bir rivojlanayotgan jamiyat uchun zaruriy sohalardan biridir. Bildirilgan ijobiy va salbiy fikrlar uning yanada takomillashuviga xizmat qiladi [Абрурахмонова Н., 2012: 16]

Sinonimlar – ma'nolari o'xshash bo'lgan so'zlar bo'lib, bunga oid soha o'xshash so'zlar orasidagi ma'noning nuanslari va soyalarini tushunishni o'z ichiga oladi. Tarjimada ushbu nuanslarni o'quvchiga samarali yetkazish uchun kontekstga eng mos bo'lgan sinonimni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'noning nuanslari va soyalari: sinonimlar umumiy ma'noga ega bo'lishi mumkin, lekin ular ko'pincha konnotatsiya, ohang yoki foydalanishda nozik farqlarga ega. Masalan, "kulgi" va "qahqaha" sinonimlari ko'rib chiqiladigan bo'lsa, ikkalasi ham ijobiy his-tuyg'ularni bildirsa-da, "qahqaha" yanada kuchli yoki jo'shqin tuyg'uni ko'rsatadi, "kulgi" esa, albatta, hayajonlanmasdan qoniqish hissini anglatadi[Abdurakhmonova, N.2020,2022,2023].

Sinonim so'zlarning kontekstga mosligini aniqlash va to'g'ri sinonimlarni tanlab olish ko'p jihatdan ularni ishlatadigan kontekstga bog'liq. Ba'zi sinonimlar ma'lum vaziyatlarda bir-birini almashtirsa, boshqalarda biri boshqasidan ko'ra ko'proq mos keladi. Misol uchun, ba'zi so'zlar bir-birining o'rnini bosadigan bo'lib tuyulishi mumkin, ammo ulardan foydalanish muayyan kontekst yoki mintaqalar bilan cheklanishi mumkin [Eric Stanley. "Polysemy and Synonymy and how these Concepts were Understood from the Eigtenth Century onwards in Treatises, and

Applied in Dictionaries of English" in Historical Dictionaries and Historical Dictionary Research, papers from the International Conference on Historical Lexicography and Lexicology. - University of Leicester, 2002. – P 157-1]

Biz bu masalani turk va oʻzbek tilida koʻrib chiqamiz. Masalan turk tilidagi "Baş-Kafa" sinonimlari bizdagi bosh va kalla sinonimlariga toʻgʻri keladi. Biroq bu soʻzlar ba'zan jumladagi ma'nosiga koʻra oʻzgarishi mumkin.

Çocuğun kafasına taş geldiği için kafası kanadı.

Bolaning boshiga tosh tekkani uchun boshi qonadi.

Sende de hiç kafa yokmuş be arkadaş !

Senda ham hech aql yoʻq ekan-da, doʻstim!

Bu yerda kafa soʻzi qoʻllangani bilan konteksdan kelib chiqib bosh soʻzi aql soʻziga toʻgʻri kelyapti va shu soʻz bilan sinonimlik hosil qilyapti.

Siyah = Kara

Evinin üzerine kara bulutlar çöküverdi

Kara günler bir gün sona erecektir

Odatda qora soʻzining sinonimi kara soʻzidir. Biroq "Kara günler bir gün sona erecektir", (Qora kunlar bir kun tugaydi)gapida "kara günler", kötü günler (yomon kunlar)ma'nosida qoʻllanilgan. Shu sababli "kara günler" oʻrniga "siyah günler" qoʻllay olmaganimiz uchun bu jumladagi "kara" soʻzining sinonimi "kötü" soʻzidir.

Quyidagi bir xil turkcha matnni bir nechta mashina tarjimasi yordamida tarjima qilib koʻramiz.

Yuqoridagi rasmlardan koʻrinib turibdiki, tarjimon dasturlar matnni deyarli bir xil xatoliklar bilan oʻzbek tiliga oʻgirmoqda. "Şahıs" (shaxs) va adam (erkak) soʻzlarining ikkalasi ham odam deb tarjima qilinyapti. Bizda shaxs, kishi, odam, inson soʻzlari oʻzaro sinonimlik hosil qiladi[Abdurakhmonova, N.2020,2022,2023].

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlash lozimki mashina tarjimasida sinonimiya hodisasi alohida xarakterlanadi va bu masala maxsus tadqiqotlar olib borishni talab qiladi. Biz mashina tarjimasini yanada mukammallashtirish va rivojlantirish uchun har bir sinonim bilan alohida ishlangan lingvistik ta'minot yaratishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eric Stanley. "Polysemy and Synonymy and how these Concepts were Understood from the Eigtenth Century onwards in Treatises, and Applied in Dictionaries of English" in Historical Dictionaries and Historical Dictionary Research, papers from the International Conference on Historical Lexicography and Lexicology. - University of Leicester, 2002. – P 157-1

2. Н.Абдурахмонова. Машина таржимасининг лингвистик асослари, Тошкент: Akademnashr, 2012. 16.

3. Ismailov, A. S., Shamsiyeva, G., & Abdurakhmonova, N. (2021). Statistical machine translation proposal for Uzbek to English. *Science and Education*, 2(12), 212-219.

4. Абдурахмонова, Н., & Бойсариева, С. (2023). TABIIY TILNI QAYTA ISHLASHDA (NLP) OKKAZIONALIZMLARNING MORFEM TAHLILI. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 6(3).

5. Abdurakhmonova, N., Tuliyev, U., Ismailov, A., & Abduvahobo, G. (2022). UZBEK ELECTRONIC CORPUS AS A TOOL FOR LINGUISTIC ANALYSIS. In *Компьютерная обработка тюркских языков. TURKLANG 2022* (pp. 231-240).

6. Abdurakhmonova, N., Alisher, I., & Toirova, G. (2022, September). Applying Web Crawler Technologies for Compiling Parallel Corpora as one Stage of Natural Language Processing. In *2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK)* (pp. 73-75). IEEE.

7. Khusainov, A., Suleymanov, D., Gilmullin, R., Minsafina, A., Kubedinova, L., & Abdurakhmonova, N. (2020, November). First Results of the TurkLang-7 Project: Creating Russian-Turkic Parallel Corpora and MT Systems. In *CMCL* (pp. 90-101).

8. https://translate.yandex.ru

9. https://translate.google.com

10. https://www.machinetranslation.com

11. https://hix.ai.translate.com